

JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

№ 2 (7) 2022 <http://natscience.jspi.uz>



ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

Бош муҳаррир –

У.О.Худанов

т.ф.н., доц.

Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,

PhD, доц.

Масъул котиб-

Д.К.Мурадова

**Муассис-Жиззах давлат педагогика
институту**

Журнал 4 марта чиқарилади
(ҳар чоракда)

Журналда чоп этилган маълумотлар
аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар
масъул

Журналдан кўчириб босилганда манбаа
аниқ кўрсатилиши шарт

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.
2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)
3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА
4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya
5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор
6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор
7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор
8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор
9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент
10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц
11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.
12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф
13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.
14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц
15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.
16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц
17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.
18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)
19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц
20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)
21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц
22. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц
23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц
24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)

Жиззах давлат педагогика институту Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**JIZZAX VILOYATIGA XOS BO'LGAN TABIIY OFATLARDAN
SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI**

Nishanov Ulug`bek Qaxramonovich - Jiz.DPI, Aniq va tabiiy fanlarni o`qitish metodikasi (Geografiya) 1 kurs magistranti

Samatova Nafisa Rustamovna - Jiz.DPI, Aniq va tabiiy fanlarni o`qitish metodikasi (Geografiya) 1 kurs magistranti

Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Jizzax viloyati hududida sodir bo`ladigan tabiiy ofatlar ya`ni sel haqida ma`lumotlar berilgan. Sel hodisasining kelib chiqish sabablari, birlamchi va ikkilamchi omillari, sel suvlaridan samarali foydalanish, ularni selxonalarga bahorgi mavsumda g`amlash va Aydar Arnasoy ko`llari atrofida tashkil etiladigan bog` va dala ekinlarini sug`orishda foydalanish masalalari yoritildi. Kelgusida shu kabi vaziyatlarning oldini olish maqsadida tavsiyalar berildi.

Kalit so`zlar: sel suv, tabiiy ofat, antropogen, texnogen, selxona, Aydar-Arnasoy, tomchilatib sug`orish, iqlimiy, gidrometeorologik, tuproq-vegetativ, damba, tog, tog`oldi, jala, do`l.

Аннотация. Сообщается о стихийных бедствиях, то есть наводнении на территории Джизакской области. Были освещены вопросы о причинах явлений наводнения, первичные и вторичные факторы, наводок, эффективное использование воды, припасывать их в весенний сезон, орошения садов и полей вокруг озера Айдар-Арнасай. Были даны рекомендации в будущем для предотвращения таких ситуаций.

Ключевые слова: наводнение, стихийное бедствие, антропогенная, техногенная, селевые потоки, айдар-Арнасай, капельный полив, климатический, гидрометеорологические, почвенно-растительные(вегетативные), плотина, гора, передгорный, дождь, град.

Annotation. There are reports of natural disasters, such as floods, in the Jizzakh region. The causes of the flood, primary and secondary factors, the effective use of flood waters, their storage in the spring in floodplains and their use in the irrigation of orchards and fields around the Aydar Arnasay lakes were discussed. Recommendations were given to prevent similar situations in the future.

Keywords: flood, natural disaster, anthropogenic, man-made, floodplain, Aydar Arnasay, drip irrigation, climatic, hydrometeorological, soil-vegetative, dam, mountain, foothills, rain, hail.

Kirish. Bugungi fan texnika rivojlangan bir davrda ayrosurat, kosmik surat, sputnikdan olingan joy ko'rnishidan, tog'lar, tekisliklar, soylar, daryolar, ko'llar, hattoki havo massalari harakatini ham ko'rish, bashorat qilish mumkin. Sel harakatini oldindan ko'ra bilish, bashorat qilish juda murakkab vazifa ekanligini hisobga olib, selni jonli mavjudodga qiyoslash mumkin.

Tog'li hududlarda go'vak nuragan jinslarning katta miqdorda to'planishi kuchli yog'ingarchilik davrida sel oqimlari uchun bitmas-tuganmas tosh, loyqa manbai hisoblanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, sellar oqizib kelayotgan massasining tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi. Bular: bog'langan oqimli va bog'lanmagan oqimli turlarga ajratilib;

-bog'langan sel oqimi gilli va nuragan tog' jinslaridan tarkib topib, qumli-toshli yoki toshli qumli bo'lsa;

-bog'lanmagan sel oqimi tarkibida esa, asosan, suv va tosh faol ishtirok etadi, ya'ni toshli-suvli yoki suvli-toshli bo'ladi[1].

Sel, tog' va tog' oldi hududlariga xos tabiiy ofat bo'lib, mamlakatimizning biz yashab turgan hududida ham (O'zbekiston Respublikasi, Jizzax viloyati) tez-tez takrorlanib turibdi.

Jizzax viloyatida tabiiy ofatlarda sel yetkazgan talofatlar anchagina ayanchli bo'lib, birgina 2022-yilning birinchi yarmida 3 ta katta sel hodisasi sodir bo'ldi.

20-aprel va 5-may kunlari Shimoliy Nurotaning g'arbiy yonbag'irlarida joylashgan hududlarda, ya'ni Jizzax viloyatining Baxmal, Forish, G'allaorol va Sharof Rashidov tumanlarida sel kuzatildi;

1-may kuni Turkiston tog'ining shimoliy etagida joylashgan Molguzar tog'i yonbag'irlari, Sho'rbel dovonidan kuchli yomg'ir natijasida sel toshqinlari sodir bo'lgan.

Asosiy qism. Mazkur hudud uchun 10 kub/soniya hajmda suv kelishi normal holat bo'lib, sel kelgan kuni esa suv hajmi 150 kub/soniyagacha ko'tarilgan. O'zgidromet tomonidan G'allaorolda yog'gan yomg'ir ikki soat ichida yillik yog'inning qariyb 10 foizini bajarib ulgurganligi, "G'allaorol" meteorologik stansiyasida 2 soat 5 minut oralig'ida 31,5 mm yomg'ir yog'ganligi ma'lum qilindi[2]. Selning vayronagarlik xususiyati haqida juda ko'p gapirish mumkin, lekin u maxsus ariqlar yordamida maxsus selxonalarga tashlansa, boshqarilsa, foydali tomonlari ham ko'p bo'ladi. Birgina selxonada bahorgi yomg'irli mavsumda 5-10 ming m^3 suv yig'ilsa, bu Aydar-Arnasoy ko'llari atrofidagi yuzlab gektar maydonda daraxtlarni, mavsumiy ekinlarni sug'orishga ishlatish mumkin, zero sel suvlari minerallarga boy sanaladi. Taxminiy hisob-kitoblarga tayanadigan bo'lsak Egizbuloq, Qoratosh, Osmonsoy, Uchmasoy, Uxumsoy etaklarida jami 5 ta selxona tashkil etilsa, o'rtacha 5 ming m^3 suv g'amlasa, jami 25 ming m^3 , 10 ming m^3 dan g'amlasa 50 ming m^3 bahorgi suvlar yig'iladi. Bu o'z navbatida ming gektar

maydonni 50 marta tomchilatib sug`orish texnologiyasi bo`lsa 200marta sug`orishga, ekilgan ekinlardan mo`l hosil olishga sabab bo`ladi.

Aydar-Arnasoy ko`llari atrofidagi yuzlab gektar suvdan xoli, sho`rlashgan tuproq unumdorligini oshirish, ekologik holatini yaxshilash maqsadida ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

-atrof-muhitni asrab-avaylash zarurligini anglagan holda, 2021-yil dekabr oyining birinchi kunlarida Jizzax viloyatining cho`l hududida Uz Auto Motors tarkibiy tarmoq korxonalarining 1500 nafardan ortiq xodimlari tomonidan yangi yashil hudud barpo etildi. 103 gektar yer maydoniga so`nggi 5 oy ichida mahalliy iqlim sharoitiga mos keluvchi 60 mingdan ortiq daraxt ko`chatlari – bular: yapon soforasi, katalpa, pavloniya, qarag`ay, kul, chinor va shu kabi manzarali daraxt ko`chatlari ekildi.



Mazkur loyiha Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan respublika miqyosida o`tkazilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida, shuningdek, Aydar-Arnasoy ko`llar tizimining biologik resurslaridan oqilona foydalanishni ta`minlash va turizmni rivojlantirish davlat dasturi asosida amalga oshirilmoqda.

Shuni alohida ta`kidlash joizki, boshqa tashkilotlarning ko`kalamzorlashtirish dasturini amalga oshirish uchun olib borilgan o`rganish ishlari natijasida tarqoq tomorqalarda ekilgan ko`chatlar katta ehtimol bilan qarovsiz qolib ketib, nobud bo`lishi aniqlandi. Sug`orish tizimi va doimiy parvarishlash bilan markazlashtirilgan bog`ning barpo etilishi ekologiyani yaxshilash muammosining eng samarali va aniq yechimidir.



Qizil chiziq- Yaratilgan bog'ning maydonini aks ettiradi.

Aydar-Arnasoy tizimining ko'llari qirg'og'ida joylashgan sun'iy o'rmon parki dam olish kunlarida mahalliy aholi tabiat qo'ynida hordiq oladigan jozibali turistik maskan bo'ladi. Keyinchalik park hududi obodonlashtirilgan plyaj, sport maydonchalari va boshqa inshoot ob'ektlari bilan to'ldiriladi, bu esa, uni shubhasiz, faol dam olish uchun mashhur maskanga aylantirib, mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash imkonini beradi. Bundan tashqari, davlat va xususiy sheriklik doirasida kompleksning dam olish infratuzilmasini yaxshilash uchun qo'shimcha sharoitlar yaratiladi.

Xulosa. Aytish joizki, yaratilgan o'rmon parki yaqin atrofdagi aholi punktlarida yashovchi aholi uchun doimiy ish o'rinlari yaratish imkonini berdi. Kelgusida yosh daraxtlarni parvarish qilish maqsadida ko'kalamzorlashtirish mutaxassislari tomonidan daraxtlarni sug'orish, parvarishlash bo'yicha muntazam ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, hududni 24 soatlik qo'riqlash tizimi tashkil etilgan bo'lib, parkni chorva hayvonlari va buzg'unchilikdan himoya qiladi. Bundan tashqari, Jizzax viloyatining qurg'oqchil zonasida oazis yaratadigan tomchilatib sug'orish bo'yicha jihozlandi. Tuproq va suvning sho'rlanganlik darajasi hisobga olinib, hajmi 5 ming m³ bo'lgan ikkita sun'iy hovuz yaratilib, artezian quduqlaridan olingan suv shu hovuzda quyosh nuriga va turli mineral moddalarga boyitilib keyin tomchilatib sug'orish texnologiyasi orqali mazkur bog' hududi sug'orilmoqda. Natijada ko'chatlar barq urib rivojlanmoqda. Kelgusida bu hudud yirik ekoturizm maskani bo'lishiga hech shakshubha yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сели·Флейшман.С.М, Перов В.Ф место издания Издательство Московского университета Москва, 1986
2. “ТАБИИҲ ОФАТЛАРНИНГ ГЕОГРАФИК ҶИНАТЛАРИ”Karimov I.E. - Jiz.DPI, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedراس dotsenti. (PhD) Samatova N.R - Jiz.DPI, Aniq va tabiiy fanlarni o’qitish metodikasi (Geografiya) 1 kurs magistranti. 2022
3. Gidroekologiya T.A.Ergashev, A.E.Ergashev Toshkent 2020
4. Научной статьи по физике, автор научной работы — Степанов Б.С., Яфязова Р.К. 2015 г
5. Карякин Ю. Природные и техногенные катастрофы: Новые вызовы и угрозы устойчивому развитию //Свободная мысль, 2010 г
6. . Научной статьи по наукам о Земле и смежным экологическим наукам, автор научной работы — Степанов Б.С., Яфязова Р.К., Жданов В.В. 2009 г
7. ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РЕГИОНА И ПУТИ ИХ РАЗРЕШЕНИЯ. Материалы XII Международной научно-практической конференции (Россия, Омск, 15–16 мая 2018 года)
8. www.aniq.uz